

BIOLOGIYANING “EKOSISTEMA” BOBIGA DOIR LABORATORIYA ISHLARINI BAJARISHDA MUAMMOLI VAZIYATLAR YARATISH METODIKASI

Ravshanova Umida Baxriddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'lim
pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi

umidaxon3010@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14564349>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiyaning “Ekosistema” bobiga doir laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli vaziyatlar yaratish metodikasi, muammoli vaziyatlarda foydalaniladigan metodlar va o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotlarni bajarishda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ekosistema, produtsentlar, konsumentlar, oziq zanjiri, tabiiy va sun'iy ekosistemalar, biotop, biotsenoz, zootsenoz, mikrobiotsenoz, edafotop, gidrotop

Mustaqillik tufayli ta'lim sohasida milliy qadriyatlarimiz, o'zligimizga xos milliy ta'lim tizimi yaratildi. Eng avvalo, farzandlarimiz xalqimizning asl tarixini o'rganib, ilmfanda dunyoni zabt etgan bobokalonlarimizning ulkan merosiga munosib avlod bo'lishga intila boshladi. Xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchilarimiz aniq va tabiiy fanlar bo'yicha mustahkam poydevori bor xalq vakili sifatida o'zlarini namoyon qilib kel-moqda. Hozirgi kunda Tabiiy fanlarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, o'quvchilarning ayniqsa kimyo biologiya fanlaridan xalqaro olimpiadalarga qatnashib nufuzli o'rinlarni egallayotgani buning yaqqol misolidir.

Hozirda tabiiy fanlarning rivojlanishi, fanlar o'rtasida differetsiatsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi ob'ektiv qonuniyat sifatida tabiiy fanlar bo'lgan biologiya, kimyo, fizika fanlari o'rtasida fanlararo bog'lanishni amalga oshirini talab etmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biologiyaning “Ekosistema” bobiga doir darslarda o'quvchilarning mustaqil laboratoriya ishlari, tajribalar, frontal laboratoriya va amaliy ishlar ko'rinishda olib borildi.

Biologiyaning “Ekosistema” bobiga doir laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli vaziyatlar yaratish metodikasi o'quvchini amaliyot bilan bog'lab o'qitishda asosiy metodlardan hisoblanadi. Biz o'z ilmiy-tadqiqot ishimizda “Ekosistema”ga oid darslarda laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli



o'qitish metodidan foydalanib, o'quvchilarda biologiya faniga nisbatan akmeologik yondashuvni, ya'ni fanga nisbatan aqliy qobiliyatning rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, aniq ko'rsatmalar orqali biologiyaning "Ekosistema" bobidan bajariladigan laboratoriya ishlari o'quvchining mustaqil faoliyat ko'rsatishiga kam imkon qoldiradi. Shu bilan birgalikda bunday laboratoriya ishlarida hamma o'quvchi bir xil vaziyatda bo'lib, ularning individual imkoniyatlari hisobga olinmaydi. O'qituvchi o'quvchini baholashda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ba'zi vaqtda o'qituvchi o'quvchini bajargan laboratoriya ishiga qarab baholaydi. Agar o'quvchi biror muammoni o'zi tajriba orqali hal qilsa, o'qituvchining baholashi osonlashadi.

Biologiyaning "Ekosistema" bobiga doir laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli vaziyatlar yaratib o'tkazmagan o'qituvchida uni o'tkaza olishi mumkinligi haqida shubha paydo bo'ladi. Ko'p hollarda ularda quyidagi savollar tug'iladi: "Muammoni tez hal qila olmaydigan o'quvchi bilan qanday ishlash lozim?", "Dars 45 minutga mo'ljallanganligi uchun biologiyaning "Ekosistema" bobidan laboratoriya ishida muammoli vaziyatlar yaratish kerakmi?". Hozirgi vaqtgacha to'plangan dalillarga asoslanib, aytish joizki, biologiyaning "Ekosistema" bobidan laboratoriya ishlari muammoli vaziyatlar yaratib bajarish zarur. Bunday mazmundagi laboratoriya ishlari metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi o'z imkoniyatini to'la ishga solib ishlashi lozim. Bu jarayonda har bir o'quvchining ishi kreativ ko'rinishda bo'lishi.

Masalan "Ekosistemaning tarkibiy qismlarini aniqlash" mavzusidagi amaliy mashg'ulotda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulot bir necha qismga bo'lib bajariladi. Amalish mashg'ulotni bajarishdan maqsad: ekosistemalarning tarkibini aniqlash, tabiiy va sun'iy ekosistemalarni qiyosiy o'rganish.

Ishning borishi

1. Ekosistemalar tarkibini aniqlash yuzasidan topshiriqlar.
2. Tabiiy va sun'iy ekosistemalarni qiyosiy o'rganishga doir topshiriqlar.
3. Xulosa.

1-topshiriq. Ekosistemalarning tarkibini sxemada aks ettiring. Sxemani ish daftaringizga chizing.



Ekosistema				
Biotop		Biotsenos		

Bunday jadvallar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini oshiradi. O'qituvchining o'quvchiga beradigan yordami individual tavsifga ega bo'lishi lozim. O'quvchi bilimini baholashda birinchi navbatda uning muammoli laboratoriya ishini mustaqil bajarganligi va ish hajmi hisobga olinadi.

Xulosa qilib aytganda biologiyaning "Ekosistema" bobiga doir laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli vaziyatlar yaratish uchun umumiy holda quyidagilarni tashkil etish mumkin:

- Biologiyaning "Ekosistema" bobiga oid laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli vaziyatlarni yaratish metodikasining umumiy g'oyasini izlab topish;
- muammoli vaziyat yaratish rejasini tuzish;
- muammoli vaziyat yaratish;
- muammoli vaziyatni hal qilish;
- olingan natijalarni matematik-statistik metodlardan foydalanib, qayta ishlash;
- ilmiy xulosalar chiqarish, amaliy taklif va tavsiyalar berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.O. Tolipova, A.T.G'ofurov Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma «O'qituvchi», Toshkent. 2002y
2. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - "Cho'lpon" – 2011 y.
3. Baxriddinovna R. U., Musurmonovich F. S. Distance Learning System in Educational System Instead, and Significance //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 21. – C. 11-13.
4. Baxriddinovna R. U. Methodology For Solving Problems of Food Chains and Ecological Pyramids and Its Significance //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 28. – C. 19-22.
5. Ravshanova U. 10-SINFDA BIOLOGIYANING "EKOSISTEMA" BOBINI MUAMMOLI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (UMUMTA'LIM MAKTABI MISOLIDA) //Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 825-827.

